

O'ZBEK VA ARAB DIPLOMATIK DISKURSIDA RASMIY MUROJAAT SHAKLLARI: QATAR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA

Raimova Sarvinoz Xursanbek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22654562>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek va arab diplomatik diskursda rasmiy murojaat shakllarining qo'llanish usullari Qatar–O'zbekiston munosabatlari misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotda Qatar va O'zbekistonning rasmiy diplomatik manbalarida davlat rahbarlari, vazirlar, elchilar hamda yuqori martabali boshqa mansabdor shaxslarga nisbatan ishlatilgan murojaat shakllari tahlil qilinadi. Arab tilidagi **صاحب السمو، سمو الأمير، فخامة الرئيس، سعادة السيد** kabi rasmiy birliklarning qo'llanish holatlari va ularning o'zbek tilidagi muqobil variantlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, mazkur birliklarning rasmiylik, hurmat-ehtirom va diplomatik ahamiyatini ifodalashdagi muhim xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari o'zbek va arab diplomatik nutqida murojaat shakllarining o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

diplomatik diskurs, murojaat shakllari, rasmiy nutq, prezident, amir, arab tili, o'zbek tili, Qatar, O'zbekiston, elchi.

Kirish

Hech kimga sir emaski, uzoq zamonlardan beri diplomatik aloqalar har bir davlat uchun doimo dolzarb bo'lib kelgan. Chunki diplomatik aloqalar xalqaro maydonda erkin va samarali muloqot o'rnatish vositalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, diplomatik diskurs xalqaro kommunikatsiyaning muhim shakli bo'lib, unda rasmiylik, aniqlik va diplomatik protokolga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aytish joizki, diplomatik diskursda har bir shaxsga uning lavozimi, maqomi va davlat boshqaruvidagi o'rniga qarab hurmat bilan murojaat qilish zarur. Bunda turli xil murojaat shakllaridan foydalaniladi.

Shuning uchun murojaat shakllariga oddiy til hodisasi sifatida emas, balki davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni rivojlantirish va xalqaro maydondagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qarash lozim. Ushbu maqolada arab va o'zbek diplomatik tilida hurmat va rasmiylikni ifodalashda qo'llaniladigan turli titul hamda murojaat shakllari Qatar va O'zbekiston misolida o'rganiladi.

O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va diplomatik aloqalarning rivojlanishi ikki davlatning rasmiy kommunikatsiyasida qo'llanilayotgan til birliklarini qiyosiy o'rganish uchun dolzarb material yaratadi. Shu sababli mazkur ikki davlat diplomatik diskursida qo'llaniladigan murojaat shakllarini o'rganish alohida tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Qatar va O'zbekistonning rasmiy manbalarida qo'llaniladigan murojaat shakllarini o'rganish, ularning kommunikativ xususiyatlarini ochib berish hamda ushbu shakllarning arab va o'zbek tillarida ifodalanish usullarini qiyosiy jihatdan ko'rsatib berishdan iborat.

Asosiy qism

Diplomatik diskurs davlatlarning xalqaro munosabatlar doirasidagi siyosiy qarashlari va tashqi siyosiy strategiyalarini ifodalashga xizmat qiluvchi til vositasi sifatida qaraladi. U rasmiy hujjatlar, davlat rahbarlari nutqlari, diplomatik muzokaralar, kelishuvlarda namoyon bo'ladi. Zhou, Zuo va Jiang diplomatik diskursni diplomatik subyektlarning xalqaro strategiyasi va tashqi siyosatini ifodalashda foydalanadigan til va nutqiy aktlari sifatida izohlaydi [1]. Demak, diplomatik diskurs nafaqat davlatlar o'rtasidagi fikr va axborot almashinuvini ta'minlaydi, balki davlatning xalqaro maydondagi rasmiy pozitsiyasini ham ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, diplomatik diskurs rasmiy xususiyatga ega bo'lib, unda qo'llaniladigan har bir so'z va ibora muayyan ma'no hamda kommunikativ vazifani bajaradi. Diplomatik muloqotda aytilgan fikrlar ko'pincha nafaqat alohida shaxsning, balki u vakillik qilayotgan davlat yoki tashkilotning pozitsiyasini ham ifodalaydi. Shu sababli diplomatik diskursda vaziyat, muloqot ishtirokchilarining maqomi va murojaat qilinayotgan shaxsning lavozimiga mos so'z tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, davlat rahbarlari, hukumat vakillari, elchilar va boshqa yuqori martabali mansabdor shaxslar bilan muloqotda rasmiy murojaat shakllaridan to'g'ri foydalanish muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Buning uchun esa murojaat shakllarini to'g'ri anglash va ulardan o'rinli foydalanish muhimdir. Murojaat shakllari muloqot jarayonida suhbatdoshga uning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei, lavozimi yoki boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda murojaat qilish vositasi sifatida qaraladi. Khalil va Larina arab tilidagi murojaat shakllarini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganib, titul va unvonlarni murojaat shakllarining muhim turlaridan biri sifatida ko'rsatadi [2].

Arab tilida ham murojaat shakllarining tanlanishi shaxsning ijtimoiy mavqei, unvoni, lavozimi, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat hamda vaziyatga qarab turlicha bo'lishi tabiiy. Shu jihatdan elchilar, davlat rahbarlari, vazirlar, yuqori martabali mansabdor shaxslar va boshqa rasmiy vakillarga nisbatan bir xil murojaat shaklidan foydalanilmaydi. Har bir lavozim va maqomga mos ravishda alohida titul va murojaat birliklari qo'llanilishi mumkin.

Masalan, arab diplomatik nutqida **صاحب السمو، سمو الأمير، فخامة الرئيس، سعادة السيد** kabi birliklarning qo'llanishi shaxsning maqomi va lavozimini ifodalash bilan birga, unga nisbatan hurmat va rasmiy munosabatni ham ko'rsatadi. Bunday birliklarning tanlanishi oddiy tarjima masalasi emas, balki diplomatik protokol va kommunikativ vaziyat bilan ham bog'liqdir. Shu sababli arab diplomatik diskursida murojaat shakllarini o'rganishda ularning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, qaysi shaxsga, qanday holatda va qanday sababdan qo'llanilayotganiga ham e'tibor qaratish lozim.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, diplomatik diskursda murojaat qilish usullarini bilish va ulardan munosib hamda o'z vaqtida foydalana olish muhim jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, arab va o'zbek diplomatik nutqini qiyoslashda murojaat shakllarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash ikki tildagi rasmiy muloqot xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Mazkur maqolada ham Qatar va O'zbekistonning rasmiy diplomatik manbalarida uchraydigan murojaat shakllari ana shu nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Amaliy tahlil

Dastavval Qatar rasmiy manbalarida uchraydigan rasmiy murojaat shakllarini ko'rib chiqamiz. Bir maqolada Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyga nisbatan bir nechta murojaat shakli ishlatilgan:

- **حضرة صاحب السمو الشيخ تميم بن حمد آل ثاني أمير البلاد المفدى**
- **سمو الأمير المفدى**
- **سمو الأمير**
- **سموه**

Maqolaning birinchi paragrafida Qatar Amiriga nisbatan to'liq rasmiy shakl — **حضرة صاحب السمو الشيخ تميم بن حمد آل ثاني أمير البلاد المفدى** ishlatilgan. Keyingi jumalalarda esa bir xil shaklni takrorlamaslik va matnning izchilligini ta'minlash maqsadida **سمو الأمير المفدى**, **سمو الأمير** va **سموه** shakllari qo'llangan. Bundan ko'rinib turibdiki, bir maqolaning o'zida ham ayni shaxsga nisbatan murojaat shakllari matnning mazmuni va kontekstiga qarab o'zgarib borishi mumkin.

Shu maqolaning o'zida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga nisbatan esa:

فخامة الرئيس شوكت ميرضيائيف رئيس جمهورية أوزبكستان الصديقة

va keyingi o'rinlarda:

- فخامة الرئيس
- فخامة رئيس أوزبكستان
- فخامة الرئيس الأوزبكي

shakllari ishlatilgan.

Bu yerda *so'ziga* alohida e'tibor qaratish lozim, chunki u davlat prezidentiga nisbatan qo'llanadigan rasmiy hurmat titulidir. Mazkur birlik O'zbekiston Prezidenti haqida so'z yuritilayotgan rasmiy diplomatik matnda uning davlat rahbari sifatidagi maqomini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Aynan shu maqolaning 56–57-qatorlarida deyarli barcha yuqori martabali qatnashchilarga *سعادة السيد ...* yoki *سعادة الشيخ ...* shakllari orqali murojaat qilingan. Masalan, Qatar Ichki ishlar vaziriga nisbatan *سعادة الشيخ*, O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovga nisbatan esa *سعادة السيد* shakli ishlatilgan [3]. Boshqa rasmiy maqolalarda esa yuqori martabali mansabdor shaxslar guruhiga nisbatan *أصحاب السعادة* birikmasining qo'llanganini ko'rish mumkin. Shuningdek, yana bir maqolada vazirga nisbatan *المعالي الوزير* birikmasi qo'llanib, uning yuqori mansabdor shaxs sifatidagi maqomi va rasmiylik darajasi ifodalangan [4].

Bundan tashqari, boshqa misollarda *خالد بن عبدالعزيز بن جاسم آل ثاني* birikmasi Qatar Media Corporation rahbariga nisbatan rasmiy hurmat shakli sifatida qo'llanganini ko'rish mumkin. Shuningdek, *أشرف خوجاييف* shakli O'zbekiston elchisi Ashraf Xo'jayevga nisbatan rasmiy hurmat ifodasini bildiradi. E'tiborga loyiq jihati shundaki, *سعادة السيد أشرف* shaklida rasmiy murojaat birligi shaxsning diplomatik lavozimi — *سفير جمهورية أوزبكستان* ("O'zbekiston Respublikasi elchisi") bilan birga qo'llangan [5]. Bu holat murojaat shakli va shaxsning diplomatik maqomi birgalikda ifodalanishini ko'rsatadi.

Endi esa O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida uchraydigan rasmiy murojaat shakllarini amaliy jihatdan tahlil qilamiz. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Amiriga hamdardlik bildirgani haqidagi maqolada Qatar Amiriga nisbatan **Shayx Hamad Ol Soniy Hazratlari** shakli qo'llangan. Mazkur shakldagi **"Hazratlari"** birligi yuqori martabali shaxsga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, matnda **"ul zot"** birligining qo'llanishi ham shaxsga nisbatan hurmat-ehtirom munosabatini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi [6].

Mazkur o'zbekcha birliklarni arab tilidagi *محضره صاحب السمو* yoki *اسمو الأمير* kabi shakllar bilan qiyoslash mumkin. Har ikki tilda ham ushbu birliklar davlat rahbarining yuqori maqomini ta'kidlash va unga nisbatan rasmiy-hurmat munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o'zbek va arab tillaridagi rasmiy murojaat shakllarida bir qator o'xshash va farqli jihatlar mavjud. Avvalo, farqli jihatlariga e'tibor qaratsak, arab tilida hurmat va yuqori maqomni ifodalovchi ayrim titul birliklari shaxs ismidan oldin kelishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, *اسمو الأمير* va *فخامة الرئيس* kabi shakllarda titul shaxs nomidan oldin qo'llanadi. O'zbek tilida esa ayrim hurmat ifodalovchi birliklar shaxs nomidan keyin kelishi mumkin. Bunga *"Shayx Hamad Ol Soniy Hazratlari"* kabi shakllarni misol qilib keltirish mumkin.

Yana bir muhim farqli jihat shundaki, arab diplomatik diskursida rasmiy hurmatni ifodalovchi titul birliklari nisbatan xilma-xil bo'lib, shaxsning maqomi va lavozimiga qarab, *سمو، فخامة، سعادة*, kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida esa biz tahlil qilgan materiallarda bunday titul birliklarining xilma-xilligi arab tilidagiga nisbatan kamroq kuzatildi.

O'xshash jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, har ikkala tilda ham shaxsning lavozimi va maqomi rasmiy murojaat shaklini tanlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, yuqori mansabdor shaxslarga nisbatan alohida hurmat shakllarining qo'llanilishi ham ikki til uchun umumiy xususiyatdir. Har ikkala tilda ham murojaat shakllari nafaqat shaxsga murojaat qilish, balki rasmiylik, hurmat-ehtirom va diplomatik masofani ifodalash vazifasini bajaradi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, diplomatik diskursda murojaat shakllarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. Albatta, biz ko'rib

chiqqan Qatar va O'zbekiston misolidagi arabcha va o'zbekcha birliklarni o'z o'rnida, to'g'ri va munosib qo'llay olish xalqaro maydonda davlatlarning diplomatik aloqalarini mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada har ikki tildagi rasmiy murojaat shakllari va birliklarni tahlil qilish asnosida ularning o'xshash va farqli jihatlariga ham guvoh bo'ldik. Tadqiqot natijasida arab tilidagi titul birliklari hamda o'zbek tilidagi hurmat-ehtirom ifodalovchi birliklarning rasmiy diplomatik kommunikatsiyadagi o'zni aniqlandi. Shuningdek, murojaat shakllari shunchaki tilning oddiy birliklari emas, balki ehtirom, hurmat va diplomatik masofani ifodalovchi muhim vosita ekanligi hamda Qatar–O'zbekiston rasmiy kommunikatsiyasida ushbu birliklarning diplomatik protokol bilan bog'liqligi ko'rsatildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zhou, Y., Zuo, J., & Jiang, H. (2024). *A Study of Diplomatic Discourse Strategies from the Perspective of the Attitude System*. Randwick International of Social Science Journal, 5(3), 331–344. [ResearchGate maqolasi](#)
2. Khalil, A., & Larina, T. (2018). *Arabic Forms of Address: Sociolinguistic Overview*. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. DOI: 10.15405/epsbs.2018.04.02.44. [Maqola sahifasi](#)
3. [Qatar Amiri Diwan](#) سمو الأمير ورئيس أوزبكستان يعقدان جلسة مباحثات رسمية. (الديوان الأميري لدولة قطر). 2 أكتوبر 2023،
4. [UZA](#) أمير دولة قطر يستقبل وزير خارجية جمهورية أوزبكستان. (أغسطس 22، 2025) وكالة أنباء أوزبكستان (UZA).
5. [مرسال قطر](#) رئيس "القطرية للإعلام" يجتمع مع سفير أوزبكستان. (مرسال قطر). 6 يوليو 2026،
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2026, 14 iyul). *O'zbekiston Prezidenti Qatar Amiri va xalqiga hamdardlik bildirdi*. [President.uz](#)

Аннотация:

В данной статье исследуются особенности употребления официальных форм обращения в узбекском и арабском дипломатическом дискурсе на материале отношений между Катаром и Узбекистаном. В исследовании анализируются формы обращения, используемые в официальных дипломатических источниках Катара и Узбекистана по отношению к главам государств, министрам, послам и другим высокопоставленным должностным лицам. Проводится сопоставительный анализ официальных арабских единиц, таких как *سعادة السيد*, *فخامة الرئيس*, *سمو الأمير*, *صاحب السمو*, и их узбекских эквивалентов. Кроме того, выявляются ключевые особенности данных единиц в выражении официальности, уважения и дипломатического значения. Результаты исследования способствуют выявлению специфических особенностей форм обращения в узбекском и арабском дипломатическом дискурсе.

Ключевые слова:

дипломатический дискурс, формы обращения, официальная речь, президент, эмир, арабский язык, узбекский язык, Катар, Узбекистан, посол.

Abstract:

This article examines the use of formal forms of address in Uzbek and Arabic diplomatic discourse, using Qatar–Uzbekistan relations as a case study. The study analyzes forms of address used in official diplomatic sources of Qatar and Uzbekistan when referring to heads of state, ministers, ambassadors, and other high-ranking officials. Formal Arabic expressions such as *سعادة السيد*, *فخامة الرئيس*, *سمو الأمير*, *صاحب السمو* and their Uzbek equivalents are examined comparatively. The study also identifies the key features of these expressions in conveying formality, respect, and diplomatic significance. The findings contribute to identifying the distinctive features of forms of address in Uzbek and Arabic diplomatic discourse.

Keywords:

diplomatic discourse, forms of address, formal speech, president, emir, Arabic language, Uzbek language, Qatar, Uzbekistan, ambassador.